

SHARQ MASH'ALI



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
ilmiy-uslubiy, ma'rifiy jurnali

4
2025



Ilmiy-uslubiy,
ma'naviy-ma'rifiy jurnal.
Ta'sischi:
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
1992-yildan chiqa boshlagan
Jumal O'zbekiston Respublikasi
Toshkent shahar matbuot va axborot
boshqarmasi ro'yxatidan qayta o'tgan
(№ 02-0055 26-sentyabr 2014-yil)

Bosh muharrir:
G. RIXSIYEVA (prof., f.f.n.)

Tahrir hay'ati:
D. SAYFULLAYEV (prof., t.f.d.) (bosh muharrir o'rinbosari)
X. ALIMOVA (prof., f.f.d.) (mas'ul kotib)
A. MANNONOV (prof., f.f.d.)
Q. SODIQOV (prof., f.f.d.)
R. XODJAYEVA (prof., f.f.d.)
SH. SHOMUSAROV (prof., f.f.d.)
Q. OMONOV (prof., f.f.d.)
U. MUHIBOVA (prof., f.f.d.)
D. MUHIDDINOVA (f.f.d.)
X. HAMIDOV (f.f. bo'yicha PhD)
B. ABDUHALIMOV (prof., t.f.d.)
A. XODJAYEV (prof., t.f.d.)
M. IS'HOQOV (prof., t.f.d.)
X. FAYZIYEV (dos., t.f.n.)
D. XODJIMURATOVA (t.f. bo'yicha PhD)
SH. YOVQOCHEV (prof., s.f.d.)
N. ABDULLAYEV (dos., s.f.d.)
A. VAHOBOV (prof., i.f.d.)
R. ABDULLAYEV (prof., i.f.d.)
I. MAVLANOV (prof., i.f.d.)
R. BAHODIROV (prof., fal.f.d.)
E. IZZETOVA (prof., fal.f.d.)
A. SHONAZAROVA (AQSHning Kolumbiya univ. prof.)
G. GLIZON (AQSHning New Mexico univ. prof.)
ONO MASAKI (Yaponiyaning Tsukuba univ. prof.)
LIDJI IN (Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar univ. prof.)
V. MESAMED (Isroilning Quddus univ. prof.)
A. GURER (Turkiyaning Anqara univ. prof.)
A. VOROBYEV (Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi)
G. AVDA (Misr Arab Respublikasining Xelvon univ. prof.)
A. TOHIR (Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori)
S. KURAYM (f.f. bo'yicha PhD)
H. BAYDEMIR (Turkiyaning Otaturk univ. prof.)

Nashrga tayyorlovchilar:
J. ISMOILOV, A. ZIYODOV
L. HAMDAMZODA,
H. SULAYMONOVA
Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy
Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya va tarix yo'nalishi bo'yicha ilmiy
maqolalar chop etiladigan ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan.
Jumal original-maket asosida bosildi.
Sharq mash'ali, 2025 yil 4-son.
e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz
Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan
farqlanishi mumkin.

Bosishga ruxsat etildi: 30.12.2025
Bichimi 84x108 1/16 Shartli 11,5 b.t.
50 nusxada bosildi. Buyurtma №
Toshkent davlat sharqshunoslik
universitetining kichik bosmaxonasi.
Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20-uy.

SHARQ MASH'ALI

ISSN 2010-9709

MUNDARIJA № 4, 2025-yil

Adabiyotshunoslik

Ходжаева Р. Коранические образы и мотивы в макамах великого мыслителя из Хорезма Махмуда аз-Замахшари 3
Ахмедова III. Образ песчаного корабля пустыни - верблюда в рассказах Сулеймана Аш-Шати 10
Qosimova G. Yomixon janri rivojida Ueda Akinari merosi 21
Ibragimov B. Elbek ijodini o'rganishdagi noxolis yondashuvlar 30
Azizova N. Zamonaviy turk she'riyatida "Sof she'r"ga xos xususiyatlarning namoyon bo'lishi 39

Tilshunoslik

Alimova X., Sirojiddinova R. Hozirgi dariy tili iqtisodiy terminologiyasida forscha leksik interferensiyalar 48
Азимджанова Д. Исторические аспекты формирования дипломатической лексики персидского языка 53
Askarova A. Linguocultural aspects of repetitions in the epic "Alpomish" 62
Nazrullayeva G. Hind tarjimashunosligida personaj nutqining o'rganilishi 65

Tashqi siyosat

Yovqochev SH., Kadirova G. Outstanding scientists, thinkers and statesmen of central asia 72
Eshankulova A. Yoshlar parlamentini rivojlantirishning milliy va xorijiy tajribalari 82
Eshankulova D. O'zbekiston tashqi siyosatida Islom hamkorlik tashkilotining strategik o'rni va geosiyosiy ahamiyati 90



HOZIRGI DARIY TILI IQTISODIY TERMINOLOGIYASIDA FORSCHA LEKSIK INTERFERENSIYALAR

XOLIDA ALIMOVA

Professor, filologiya fanlari doktori (DSc), TDSHU

ROBIYAXON SIROJIDDINOVA

Magistrant, TDSHU

Annotatsiya. Maqolada hozirgi dariy tilidagi forscha leksik interferensiyalar iqtisodiy terminlar misolida o'rganilgan. Dariy tili leksik sistemasidagi o'zgarish va tamoyillar dariy matbuoti iqtisodiy soha materiallari asosida yoritib berilgan.

Bugungi dariy matbuoti sahifalarida iqtisodiyot sohasida forscha so'zlarni ishlatish tendensiyasi kuzatiladi. Bular, asosan, savdo (eksport, import, yalpi ichki mahsulot kabi) va bank-moliya sohalariga oid leksikani tashkil qiladi. Iqtisodiyot sohasiga oid maxsus tushunchalarni ifodalovchi terminologik leksikaning tashkil topishi va taraqqiy etishida ijtimoiy-siyosiy va savdo aloqalarining muayyan leksik-semantik qamrovning kengayishi yoki torayishida o'rni bor. Afg'oniston iqtisodiy hayotida asrlar davomida qo'llanilib kelingan تاجر tājer 'savdogar', 'tadbirkor' so'zi o'rnida hozirgi dariy matbuot tilida forscha بازرگان bāzargān 'biznesmen', 'tadbirkor', اموال amwāl, اجناس aĵnās 'tovar' o'rnida کالا kâlâ kabi so'zlar erkin qo'llanilmoqda. Shuningdek, so'nggi o'n yillikda کارمزد kârmôzd 'komissiya', کارگزار kârgozâr 'broker', هزینه hazîna 'xarajat(lar)', وام wâm 'qarz', 'kredit', تجارت پایاپای tejârat-e pâypây 'barter' kabi faol qo'llanayotgan iqtisodiy terminlar mavjud dariy tili lug'atlarida qayd qilinmagan yoki fors tili ta'sirida ma'nolari kengaygan.

Eronda Til akademiyasi davlat «til siyosati» darajasida o'zlashma so'zlarni nazoratga olish, ularning fors tilidagi muodillarini ichki resurslar orqali ifodalash chora-tadbirlari asosida ish yuritadi. Afg'onistondagi sharoit Eron til akademiyasi faoliyati darajasida baholanmasa-da, kuzatishlar dariy tilida ham so'z yasash imkoniyatidan foydalanib, talabga javob beradigan yangi-yangi so'zlar hosil qilinayotganini tasdiqlaydi. Biroq Afg'oniston davlat til siyosatida asosiy e'tibor pashtu tili nufuzini oshirishga qaratilgan. Bu esa dariy tiliga chet so'zlarning, ayniqsa, forscha so'z / terminlarning erkin o'zlashuvini ta'minlaydi. Zero, Afg'oniston va Eron o'rtasidagi aloqalar, Erondagi afg'on ziyolilarining adabiy faoliyati, eron davriy va nodavriy nashrlarning Afg'onistonda keng tarqalgani dariy tiliga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Maqolada keltirilgan faktlar ashyoviy dalillar orqali isbotlangan.

Tayanch so'z va iboralar: Afg'oniston, dariy tili, leksik interferensiya, Eron, fors tili, matbuot, iqtisod, termin, til siyosati.

Аннотация. В статье на примере экономических терминов рассматриваются современные персидские лексические интерференции в языке дари. Изменения и тенденции в лексической системе дари освещены на основе материалов экономической сферы дариязычной прессы.

На страницах современной дариязычной прессы наблюдается тенденция использования персидских слов в области экономики. В основном это лексика, относящаяся к сфере торговли (таких как экспорт, импорт, валовой внутренний продукт) и банковско-финансовому сектору. Формирование и развитие терминологической лексики, выражающей специальные экономические понятия, тесно связано с состоянием социально-политических и торговых связей, что приводит к расширению или сужению определённого лексико-семантического охвата. В экономической жизни Афганистана на протяжении веков употреблялось слово تاجر tājer 'купец', 'предприниматель', однако в современном языке дари в прессе свободно используются персидские слова بازرگان bāzargān 'бизнесмен', 'предприниматель', کالا kâlâ вместо اموال amwāl, اجناس aĵnās 'товары' и другие. Кроме того, за последнее десятилетие широкое распространение получили такие экономические термины,

как کارمزد *kârmozd* ‘комиссия’, کارگزار *kârgozâr* ‘брокер’, هزینه *hazina* ‘расход(ы)’, وام *wâm* ‘заём’, ‘кредит’, تجارت پایاپای *teĵârat-e pâûârâû* ‘бартер’, которые либо не зафиксированы в существующих словарях языка дари, либо их значения расширились под влиянием персидского языка.

В Иране Академия языка действует на уровне государственной «языковой политики», контролируя заимствованные слова и проводя меры по выражению их персидских эквивалентов с помощью внутренних ресурсов. Хотя условия в Афганистане нельзя оценивать на уровне деятельности Академии языка Ирана, наблюдения показывают, что и в дари создаются новые слова, удовлетворяющие современным потребностям, с использованием словообразовательных возможностей языка. Однако в государственной языковой политике Афганистана основное внимание уделяется повышению статуса языка пушту. Это облегчает свободное проникновение в язык дари иностранных слов, особенно персизмов и терминов персидского происхождения. Кроме того, на язык дари влияет развитие афгано-иранских связей, литературная деятельность афганской интеллигенции в Иране, а также широкое распространение иранских периодических и неперидических изданий в Афганистане.

Приведённые в статье факты подтверждены вещественными доказательствами.

Ключевые слова: Афганистан, язык дари, лексическая интерференция, Иран, персидский язык, пресса, экономика, термин, языковая политика.

Abstract. The article examines Persian lexical interferences in the contemporary Dari language using economic terms as examples. Changes and tendencies in the lexical system of Dari are described on the basis of economic materials from the Dari press.

In today's Dari-language media, there is a noticeable tendency to use Persian words in the field of economics. These mainly include vocabulary related to trade (such as export, import, gross domestic product) and the banking-financial sector. The formation and development of terminological vocabulary used to express specific economic concepts are influenced by socio-political and trade relations, which can lead to the expansion or narrowing of particular lexical-semantic domains.

In Afghanistan's economic life, the word تاجر *tâĵer* ‘merchant’, ‘entrepreneur’ has been used for centuries, but in the modern Dari press it is increasingly replaced by the Persian بازرگان *bâzargân* ‘businessman’, ‘entrepreneur’, and the words اموال *amwâl*, اجناس *aĵnâs* ‘goods’ are being replaced by کالا *kâlâ*, among others. Furthermore, in the past decade, widely used economic terms such as کارمزد *kârmozd* ‘commission’, کارگزار *kârgozâr* ‘broker’, هزینه *hazina* ‘expense(s)’, وام *wâm* ‘loan’, ‘credit’, and تجارت پایاپای *teĵârat-e pâûârâû* ‘barter’ have either not been recorded in existing Dari dictionaries or their meanings have expanded under the influence of Persian.

In Iran, the Language Academy operates at the level of state “language policy” monitoring loanwords and implementing measures to express their Persian equivalents through internal linguistic resources. Although the situation in Afghanistan cannot be evaluated at the level of the Iranian Language Academy's activity, observations indicate that new words that meet linguistic demand are also being formed in Dari through its own word-formation mechanisms. However, Afghanistan's state language policy mainly focuses on strengthening the position of Pashto. This facilitates the free adoption of foreign words into Dari, especially Persian words and terms. Moreover, Afghan-Iranian relations, the literary activity of Afghan intellectuals in Iran, and the wide circulation of Iranian periodical and non-periodical publications in Afghanistan also influence the Dari language.

The veracity of the facts presented in the article is substantiated by material evidence.

Keywords: Afghanistan, Dari language, lexical interference, Iran, Persian language, press, economics, terminology, language policy.

Kirish. Ma'lumki, tilning lug'aviy tarkibi boyib, rivojlanib borishida ikki asosiy manba muhim rol o'ynaydi. Bular tilning o'z ichki qonuniyatlari, imkoniyatlari asosida yangi so'zlar yasash hamda o'zga tillardan so'z o'zlashtirishdir. Har ikkala holat ma'lum ehtiyoj, zaruriyat tufayli amalga oshadi va u murakkab jarayon bo'lib, unda turli xil lisoniy va nolisoniy (ekstralingvistik)



omillar amal qiladi. Shu sababli yangi soʻz hosil qilishning har bir jabhasi til tizimining murakkab xususiyatlaridan biridir.

Dariy tili uzoq davr mobaynida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida fors tilining tadqiqiga oid ishlar tarkibida oʻrganildi. Darhaqiqat, dariy va fors tillarining oʻzaro munosabati jiddiy ilmiy muammo sanaladi: 1) bu tillar asosiy lugʻat boyligining mushtarakligi; 2) fors tilida soʻzlashuvchilar soni koʻpligi, eron matbuot bazasining yuqori darajada rivojlanganligi, Afgʻonistonda eron davriy va nodavriy nashrlarning keng tarqalgani va nihoyat, afgʻon ziyolilari orasida hozirgi fors tilining katta nufuzi dariy tiliga oʻz taʼsirini koʻrsatadi.

Maqsad va vazifa. Maqolada hozirgi dariy tilidagi forscha leksik interferensiyalar iqtisodiy terminlar misolida tadqiq qilindi. Dariy tili materiallari asosida tillararo interferensiyani aniqlash genetik jihatdan qarindosh tillar doirasida bugungi dariy tili leksik sistemasidagi oʻzgarish va rivojlanishni yoritib berishga xizmat qiladi.

Usullar. Tadqiqotda materiallar tavsifiy, chogʻishtirish va komponent tahlil metodlari asosida oʻrganildi.

Natijalar va mulohaza. Hozirgi davr bozor iqtisodiyoti barcha tillar iqtisodiyot terminologiyasining muayyan taraqqiyoti va takomillashuviga oʻz taʼsirini koʻrsatmoqda. Tildagi doimiy oʻzgarishlar, eng avvalo, matbuot dinamikasida aniq va yaqqol koʻrinishi maʼlum. Bugungi dariy matbuoti sahifalarida iqtisodiyot sohasida forscha soʻzlarni ishlatish tendensiyasi kuzatiladi. Bular, asosan, savdo (eksport, import, yalpi ichki mahsulot kabi) va bank-moliya sohalariga oid leksikani tashkil qiladi. Maqola materiallari tahlilida, shuningdek, Nadim Muhammad Humayun tomonidan tuzilgan “Dictionary of International Customs and Trade Terms (English-Dari-Uzbek-Pashto) (Xalqaro bojxona va tijorat terminlari lugʻati (ingliz-dari-oʻzbek-pushtu))”ga¹ murojaat qilindi. Lugʻatga 900 dan ortiq termin, shulardan 200 dan ortigʻi mufassal izohi bilan kiritilgan. Shuni aytish kerakki, mazkur lugʻat ayni vaqtda tilshunoslik, iqtisodiyot va huquq fanlari oʻrtasidagi integratsiyani taʼminlashda amaliy ahamiyatga ega.

Afgʻoniston iqtisodiy hayotida asrlar davomida qoʻllanilib kelingan تاجر *tâjër* ‘savdogar’, ‘tadbirkor’ soʻzi oʻrnida hozirgi dariy matbuot tilida forscha بازرگان *bâzargân* ‘biznesmen’, ‘tadbirkor’, اموال *amwâl*, اجناس *ajnâs* ‘tovar’ oʻrnida کالا *kâlâ* soʻzi erkin qoʻllanilmoqda:

در یک ماه گذشته 400 بازرگان در کندز سرمایه گذاری کرده اند²

Dar yak mâh-e gozašta čahârsad bâzargân dar Kondozi sarmâyagozâri karda-and

‘Oʻtgan oy Qunduzda 400 nafar tadbirkor sarmoya kiritdilar’;

انور الحق احدی وزیر تجارت و صنایع کشور که در یک نشست خبری سخن می گفت از بازرگانان افغان و خارجی خواست تا بیشتر در بخش ایجاد شغل در افغانستان سرمایه گذاری کنند³

Anwarolhaq Ahadi wazir-e Tejârat wa sanâye’-e kešwar ke dar yak nešast-e xabari soxan megoft az bâzargânân-e afyân wa xâreji xâst tâ bêstar dar baxš-e ijâd-e šoyol dar Afyânestân sarmâyagozâri konand

‘Mamlakat Savdo va sanoat vaziri Anvarulhaq Ahadi matbuot anjumanida soʻzga chiqib, afgʻon va xorijlik tadbirkorlarni Afgʻonistonda yangi ish oʻrinlari yaratishda koʻproq sarmoya kiritishga chaqirdi’.

¹ Humayun M.N. Xalqaro bojxona va tijorat terminlari lugʻati (ingliz-dariy-oʻzbek-pushtu). – Termiz: Surxon ilm nashri, 2024. – 104 b.

² <http://farsi.ru/doc/12095.html>

³ <http://www.farsi.ru/doc/6078.html>



Mazkur soʻzlarning birikma termin tarkibida, masalan, *kālāhā-ye tejārati* bilan parallel *kālāhā-ye bozargāni* shaklida ham ishlatilishi kuzatiladi:

شیرخان بندر، یکی از بنادر مهم در شمال افغانستان است که همواره بازرگان ملی کالاهای تجارتی شان را از طریق پل دوستی به کشورهای آسیای میانه، شرق میانه، آسیای مرکزی و خلیج فارس انتقال می دهند¹

Šêrxân bandar, yakê az banâder-e mohem dar šemâl-e Afyânestân ast ke hamwâra bâzargân-e melli kâlâhâ-ye tejârati-yešân râ az tariq-e pol-e dôsti ba kešwarhâ-ye Âsyâ-ye Miyâna, Šarq-e Miyâna, Âsiyâ-ye Markazi wa Xalij-e Fârs enteqâl mêdehand

‘Sher Xon Bandar Afgʻoniston shimolidagi muhim portlardan biri boʻlib, mahalliy tadbirkorlar doimo oʻz tijorat mollarini Doʻstlik koʻprigi orqali Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va Fors koʻrfazi mamlakatlariga yetkazadilar’;

نخستین کاروان کالاهای بازرگانی چین از طریق خط آهن ویژه به شمال افغانستان رسید²

Noxostin kârwan-e kâlâhâ-ye bozargâni-ye Ĉin az tariq-e xat(t)eâhan-e wiža ba šemâl-e Afyânestân rasid

‘Xitoyning birinchi savdo mollari karvoni maxsus temir yoʻl orqali Afgʻonistonning shimoliga yetib keldi’;

توقف صدها موتر حامل کالاهای تجارتی در شاهراه شمال افغانستان³

Tawaqqof-e sadhâ môtar-e hâmel-e kâlâhâ-ye tejârati dar šâhrâh-e šemâl-e Afyânestân

‘Afgʻonistonning shimolidagi avtomagistralda savdo mollari ortilgan yuzlab mashinalar toʻxtab qoldi’.

Shuni aytish kerakki, Nadim Muhammad Humayunning lugʻatida *kâlâ* ‘tovar’ ishtirokida oʻnlab iqtisodiy birikma terminlar keltirilgan: *kâlâhâ-ye hamlšoda* ‘tashilgan yuk’, *kâlâhâ-ye zamini* ‘haddan tashqari ortilgan yuk’, *kâlâhâ-ye mamnuʻa* ‘taqiqlangan tovarlar’, *kâlâhâ-ye mahdud* ‘cheklangan tovarlar’, *kâlâhâ-ye mojâz* ‘vakolatli tovarlar’ va h.k.

نوار بهداشتی هم در جای پنهانی در فروشگاه، مانند یک کالای ممنوعه گذاشته شده و از معرض دید عموم پنهان است⁴

Nawâr-e behdâsti ham dar jâ-ye penhâni dar forôšgâh, mânand-e kâlâ-ye mamnuʻa gozâšta šoda wa az maʻraz-e did-e omum penhân ast

‘Gigiyenik salfetkalar ham taqiqlangan mahsulotdek doʻkonda yashirin joyga qoʻyilgan va jamoatchilik koʻzidan berkitilgan’.

Shuningdek, hozirgi dariy tilida soʻnggi oʻn yillikda *kârmozd* ‘komissiya’, *kârgozâr* ‘broker’, ‘agent’ (*bank*), *hazina* ‘xarajat(lar)’, *wâm* ‘qarz’, ‘kredit’, *tejârat-e pâypây* ‘barter’ kabi faol qoʻllanayotgan iqtisodiy terminlar mavjud dariy tili lugʻatlarida⁵ qayd qilinmagan yoki fors tili taʼsirida maʼno kengayishi kuzatiladi. Quyidagi misollar tahlilidan koʻrinadiki, iqtisodiyot sohasiga oid maxsus tushunchalarni ifodalovchi terminologik leksikaning tashkil topishi va taraqqiy etishida ijtimoiy-siyosiy va savdo aloqalarining muayyan leksik-semantik qamrovning kengayishi yoki torayishida oʻrni bor. Misol uchun:

¹ <http://www.farsi.ru/doc/9892.html>

² <http://www.farsi.ru/doc/12928.html>

³ <http://www.farsi.ru/doc/10188.html>

⁴ <https://8am.media/fa/world-menstrual-health-day-gay-taboo-in-afghanistan/>

⁵ Киселева Л.Н., Миколайчик В.И. Дари-русский словарь. – 2-е изд., стереотип., с Приложением новых слов. – М.: Русский язык, 1986. – 752 с.; Лебедев К.А., Яцевич Л.С., Конаровский М.А. Русско-пушту-дари словарь. – М.: Русский язык, 1983. – 768 с.



تعرفه ارایه خدمات کنسولی براساس هزینه‌ها اعم از پرداخت کارمزد فورم‌های ثبت نام از سوی شرکت‌های سیاحتی، زیارتی و درمانی، کارمزد بانکی اخذ وجوه و سایر هزینه‌های مربوطه طی دستورالعملی به کارگزار خویش ابلاغ گردیده است¹

Ta'refa-ye erâya-ye xadamât-e konsuli bar asâs-e hazinahâ aam(m) az pardâxt-e kârmôzd-e formhâ-ye sabbt-e nâm az su-ye šerkathâ-ye sayâhati, zeyârati wa darmâni, kârmôzd-e bânkî-ye axz-e wojuh wa sâyer hazinahâ-ye marbuta tay-ye dasturolamali ba kârgozâr-e xêš eblây gardida ast

‘Konsullik xizmatlarini ko‘rsatish tariflari xarajatlarga, jumladan, turizm, ziyorat va tibbiyot kompaniyalari tomonidan ro‘yxatdan o‘tish varaqalari komissiyalari, pul mablag‘larini olish uchun bank komissiyalari va o‘z agentiga ko‘rsatma orqali xabar qilingan boshqa tegishli xarajatlarga asoslanadi’;

وام 70 میلیون دالری تاجیکستان برای اجرای پروژه برق کاسا²

Wâm-e haftâd mêlyun dâlari-ye Tâjêkestân barâye ejrâ-ye prôza-ye barq-e Kâsâ

‘CASA energetika loyihasini amalga oshirish uchun Tojikistonning 70 million dollarlik bergan qarzi’;

آموزش در مکتب‌های خصوصی؛ هزینه‌های اضافی خانواده‌ها را تحت فشار قرار داده است³

Âmôzeš dar maktabhâ-ye xosusi; hazinahâ-ye ezâfi xân(e)wâdahâ râ taht-e fešâr qarâr dâda ast

‘Xususiy maktablarda ta’lim; qo‘shimcha xarajatlar oilalarga bosim o‘tkazmoqda’;

گفته می‌شود که پس از بحث و گفت‌وگو، مفاد مربوط به سیاست صادراتی اصلاح و پوشش نظارتی برای ترتیبات تجارت پایاپای تصویب شده است⁴

Gofta mêšawad ke pas az bahs-o-goftogô, mafâd-e marbut ba seyâsat-e sâderâti eslâh wa pôšeš-e nazârati barâye tartibât-e tejârat-e pâyâpây taswib šoda ast

‘Muhokama va muloqotdan so‘ng, isloh qilingan eksport siyosati va barter savdosi kelishuvlarini tartibga solish bilan bog‘liq qoidalar tasdiqlangani aytilmoqda’;

دولت پاکستان سازوکار اصلاح شده تجارت پایاپای (بارتر) را با کشورهای ایران، روسیه و افغانستان به اجرا گذاشته است⁵

Dawlat-e Pâkestân sâz-o-kâr eslâhšoda-ye tejârat-e pâyâpây (bârtar) râ bâ kešwarhâ-ye Irân, Rusiya wa Afyânestân ba ejrâ gozâšta ast

‘Pokiston hukumati Eron, Rossiya va Afg‘oniston bilan isloh qilingan barter savdo mexanizmini joriy etdi’.

Misollarda تجارت پایاپای ‘barter’ birikma terminining مبادله *tejârat-e pâyâpây* dariycha shakli ham uchradi:

کمیتة هماهنگی اقتصادی پاکستان مکانیسم قانونی را برای ایجاد تجارت مبادله‌ای با کشورهای ایران و افغانستان تصویب کرده است⁶

Komita-ye hamâhangî-ye eqtesâdi-ye Pâkestân mekânêsm-e qânuni râ barâye ijâd-e tejârat-e mobâdela-i bâ kešwarhâ-ye Irân wa Afyânestân taswib karda-ast

¹ <https://8am.media/fa/facilitation-or-assignment-what-is-the-main-reason-for-stopping-the-activities-of-the-iranian-consulate-in-herat/>

² <http://www.farsi.ru/doc/10899.html>

³ <https://8am.media/fa/private-school-education-additional-costs-put-pressure-on-families/>

⁴ <https://8am.media/fa/pakistan-established-legal-mechanism-for-trade-with-iran-and-afghanistan/>

⁵ <https://8am.media/fa/pakistan-implements-new-barter-trade-framework-with-iran-russia-and-afghanistan/>

⁶ <https://8am.media/fa/pakistan-established-legal-mechanism-for-trade-with-iran-and-afghanistan/>



‘Pokiston Iqtisodiy Muvofiqlashtirish Qo‘mitasi Eron va Afg‘oniston bilan barter savdosini yo‘lga qo‘yishning huquqiy mexanizmini tasdiqladi’.

Keltirilgan misollardagi کارمزد *kârmôzd*, کارگزار *kârgozâr*, هزینه *hazina*, وام *wâm* terminlari fors tili lug‘atlarida qayd qilingan: کارمزد *kârmôzd* 1) ‘mehnat uchun to‘lov’, 2) ‘gonorar’, 3) ‘kommisiyalar’¹; هزینه *hazina* ‘xarajatlar’²; وام *wâm* ‘qarz’, ‘kredit’³; کارگزار *kârgozâr* ‘vakil’, ‘ishonchli shaxs’, ‘agent’ (*bank*)⁴. Bularning dariy tilida ayni ma‘nolarda ishlatilayotganini “Xalqaro bojxona va tijorat terminlari lug‘ati (ingliz-dari-o‘zbek-pushtu)”da berilgani ham tasdiqlaydi. Muallif lug‘atda ayrim terminlarning avvaldan qo‘llanib kelingan variantlarini ham keltiradi: ‘komissiya’ termini uchun حق العمل *haqolamal* – دلالی *dallâli* – کارمزد *kârmôzd*⁵; ‘broker’ کارگزار *kârgozâr* – دلال *dallâl* – واسطه *waseta*⁶ kabi.

Xulosa. Eronda Til akademiyasi davlat “til siyosati” darajasida o‘zlashma so‘zlarni nazoratga olish, ularning fors tilidagi muodillarini ichki resurs – so‘z yasash usullari orqali ifodalash chora-tadbirlari asosida ish yuritadi. Demak, yangi tushunchalar uchun o‘zlashmalar emas, tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanilmoqda. Afg‘onistondagi sharoit Eron til akademiyasi faoliyati darajasida baholanmasa-da, kuzatishlar dariy tilida ham so‘z yasash imkoniyatidan foydalanib, talabga javob beradigan yangi-yangi so‘zlar hosil qilinayotganini tasdiqlaydi. Biroq Afg‘oniston davlat til siyosatida asosiy e‘tibor pashtu tili nufuzini oshirishga qaratilgan. Bu esa dariy tiliga chet so‘zlarning, ayniqsa, forsha so‘z / terminlarning erkin o‘zlashuvini ta‘minlaydi. Zero, Afg‘oniston va Eron o‘rtasidagi aloqalar, Erondagi afg‘on ziyolilarining adabiy faoliyati, eron davriy va nodavriy nashrlarning Afg‘onistonda keng tarqalgani dariy tiliga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.



ИСТОРИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКИ ПЕРСИДСКОГО ЯЗЫКА

ДИНАРА АЗИМДЖАНОВА

К.ф.н., доцент, ТГУВ



Аннотация. Статья посвящена исследованию исторических этапов формирования дипломатической лексики персидского языка в контексте политического и культурного развития Ирана. Автор прослеживает эволюцию дипломатического дискурса от эпохи Ахеменидов до современного периода, выделяя ключевые факторы, повлиявшие на становление и развитие дипломатической терминологии. Особое внимание уделено эпохам династий Каджаров и Пехлеви, когда в Иране происходила институционализация внешнеполитической службы и активное заимствование европейских понятий. Анализируется влияние исламской революции 1979 года на

¹ Персидско-русский словарь: В 2-х т. – М.: Русский язык, 1985. Т.2. – С. 292.

² Ko‘rsatilgan lug‘at. – С. 718.

³ Ko‘rsatilgan lug‘at. – С. 692.

⁴ Ko‘rsatilgan lug‘at. – С. 292.

⁵ Humayun M.N. Xalqaro bojxona va tijorat terminlari lug‘ati (ingliz-dariy-o‘zbek-pushtu). – Termiz: Surxon ilm nashri, 2024. – B. 31.

⁶ Ko‘rsatilgan lug‘at. – B. 48.